

3- LABORATORIYA ISHI

Xlorid kislota, galogenidlar va yod uchun sifat reaksiyalari

1. Quyidagi jadvalni daftaringizga ko'chirib oling.

Reagent	HCl	NaCl	NaBr	NaI
AgNO ₃ eritmasi	1	2	3	4

2. To'rtta probirka oling. Ularning birinchisiga HCl, ikkinchisiga NaCl, uchinchisiga NaBr va to'rtinchisiga NaI tuzlarining eritmalaridan 1—2 *ml* dan quying.
3. Eritmalar quyilgan probirkalarga navbatma-navbat AgNO₃ eritmasidan 0,5 *ml* (3—4 tomchidan) quying.
4. Sodir bo'lgan o'zgarishlarni kuzating. Reaksiya tenglamalarini yozing. Natijalarni jadvalga yozing.
5. Probirkaga kraxmal kleysteridan 3—4 tomchi quying. Uning ustiga yodning spirtidagi eritmasidan 1 tomchi tomizing. Sodir bo'lgan o'zgarishni kuzating.
6. Kartoshka va non bo'laklariga yodning spirtidagi eritmasidan 1—2 tomchi tomizing. Sodir bo'lgan o'zgarishlarni kuzating. Kuzatish natijalariga asoslanib o'z fikringizni bildiring.